

## AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB INTERNATLARDA O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

*Raxmatova Gulnoraxon Po'latxonovna-  
Toshkent viloyati Piskent tumanidagi  
79-sonli imkoniyati cheklangan  
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan  
maktab-internat logopedi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil etish masalalari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещаются вопросы организации инновационной деятельности педагогов специализированных школ-интернатов для детей с ограниченными интеллектуальными возможностями.

**Annotation:** This article highlights the issues of organizing innovative activities of teachers in specialized boarding schools for children with intellectual disabilities.

**Tayanch so'zlar:** Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, maktab-internat, ta'lim-tarbiya, ruhiy jarayonlar, nutq, nuqson.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash maqsadida ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, insonni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir.

Imkoniyati cheklangan aqli zaif o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim-tarbiya oluvchi har bir bolani zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo'lib, jamiyat ishlarida faol qatnashishida ruhiy jarayonlar va bilish faoliyatini rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish uchun o'qituvchi, avvalo, ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Imkoniyati cheklangan aqli zaif o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi ta'lim-tarbiya tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Aqliy rivojlanishni izdan chiqishi oqibatida insonning boshqalardan ajralib qolishi uning rivojlanishida juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday o'ziga xos muammolarning yuzaga kelishi o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoadan yakkalanib qolishga, jamoadan yakkalanib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi» degan fikrni bildiradi.

L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta'limotlariga tayangan, shuningdek, eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan holda ish olib borish samarali natijalar berishi qator olimlar tomonidan ta'kidlangan.

Ma'lumki, ijtimoiy hayotiy ko'nikma va malakalarning egallanishi tarbiya jarayonida tarkib topadi. Shu maqsadda biz dars va tadbirlarimizni trening-mashg'ulotlar ko'rinishida olib borishga harakat qilamiz. Bunday trening-mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishi shaxslararo do'stona, barchaning tengligiga asoslangan munosabatlarni o'rnatish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni egallash uchun eng qulay sharoitni yuzaga keltiradi. Darslarni oldindan rejalashtirib qo'yilishi barcha bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, jarayon davomida tolerantlik, o'zgalarni, ular tomonidan bildirilgan fikrlarni hurmat qilish kabi insonparvarlik xislatlarining shakllanishiga imkon yaratmoqda.

Imkoniyati cheklangan aqli zaif o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilarini ruhiy jarayonlarining o'ziga xosligi bolalarning umumiy rivojlanishlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatga qabul qilingan aqliy rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarda dastlabki paytlarda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga befarqlik, qiziqishning pastligi, faoliyatining maqsadga yo'nalmaganligi va tartibsizligi, ijodiy fikrlashning yo'qligi kuzatiladi. Ular aynan nima bilan shug'ullanayotganliklarini aytib berishga qiynaladilar hamda faoliyatlari nutqlari bilan mos kelmaydi. Bunday bolalarning topshiriqni bajarishni to'g'ri boshlab chalg'ib ketishlari tufayli faoliyatlari muntazam nazoratda bo'lishi talab qilinadi. Ish jarayonida bunday o'quvchilarning ko'p chalg'ishlari va irodaviy hislarining sustligi, taklif qilingan yordamdan foydalana olmasliklari, ish natijalariga tanqidiy munosabatda bo'lmasliklari, erishilgan natijaga nisbatan hech qanday emotsional tuyg'u sezmasliklari kuzatiladi. Ya'ni, ushbu o'ziga xoslik bolalarning ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishni chegaralaydi. Natijada bunday bolalarning ijtimoiy hayotni o'zgacha idrok etishi hamda tushunishi, pirovardida dunyoqarashining tor darajada rivojlanishi yuzaga kelib chiqadi.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning birlamchi va uning oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi muammolari (nutq hamda uning asosida so'z-mantiqiy

tafakkurning o'zgacha rivojlanishi va h.) ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga, uni sifatli tashkil etish kabi vazifalarga umumiy o'rta ta'lim maktablariga nisbatan o'zgacha yondashish lozimligini talab qiladi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar o'qituvchilarga, eng avvalo, o'z o'quvchilari rivojlanish xususiyatlari haqida mukammal bilimga ega bo'lish, maxsus tashkil etiluvchi ta'lim-tarbiya jarayonining tub mohiyati va mazmunini anglab olish vazifasini yuklaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. O'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolari bo'yicha maslahat beradi, ularning bilish xususiyatlarini hisobga olib diqqati, ongi, tasavvurlari, xotirasi, fikrlashi, xarakteri va boshqa rivojlanishi to'g'risida tavsiyalar beradi. O'qitish rivojlantirish, hayotda o'z o'rmini topish, o'zini-o'zi tarbiyalash, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish masalalari bo'yicha yakka va guruhli maslahatlar beradi. O'quvchilar bilan doimiy kasbga yo'naltirish ishlari olib boradilar (ularning qobiliyatlari, qiziqishlarini aniqlab rivojlantiradi, adekvat o'z-o'zini baholash, hayotiy rejalarini aniqlaydi va rivojlantiradi), bu ularni bilish imkoniyatlarini hisobga olib kasbiy mavqeyini anglash, mustaqil va ongli ravishda kasb, kasbiy faoliyat doirasini tanlashga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, maxsus ta'lim tizimidagi o'qituvchi-aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxs sifatida shakllanishidagi buzilishlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan, ularni har tomonlama garmonik kamoloti uchun to'laqonli ta'lim-tarbiya jarayonini yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. "Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education." *Science and Education* 2.5 (2021): 544-549.
2. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 2345-2353.
3. Mamatkulova, L. T. (2022, August). DEFECTS IN THE WRITTEN SPEECH OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES AND THEIR ELIMINATION. In Conference Zone (pp. 92-93).